

---

## BARCHASI INSON QADRI UCHUN

Saydullo Yusupov Farg'ona viloyati, Toshloq tumanida istiqomat qiladi. Ishsiz edi. Ro'zg'or kamchiliklarini to'ldirish uchun albatta ishlamoq kerak. Shu sababli mas'ullar o'tkazgan sayyor qabulda o'z muammolarini aytdi. Mas'ullar murojaatchini ishlik qilish maqsadida zovur yaqinidan joy ajratib, qafas qurdilar. Saydullo mana shu yerda faoliyat ko'rsatishi uchun o'rdak olib berdilar va imkoniyat yaratdilar. Bugungi kunda zovur yonidagi qafasda 100 ga yaqin o'rdak va g'ozlarni parvarishlamoqda. Har kuni tuxum oladi. Qolaversa, o'rdak jo'jalarini ham olib kelib qo'shgan. Aslida o'rdak parvarishlash odamdan u qadar mashaqqatli ish talab qilmaydi. Vaqtida donini bersa, qarovi bilan shug'ullanilsa bas. Zovurdagi yovvoyi o'tlar bilan ozuqalanadi. Ma'lumotlarga qaraganda Toshloq tumanidagi 64 ta fermer xo'jaliklar yonida 264 gektar zovurlar mavjud. Mas'ullar tomonidan mana shu zovurlar yoniga o'rdakxonalar qurilmoqda. Bu esa "Temir daftar" yoki "Yoshlar daftari"ga kiritilgan, xohishi bor fuqarolarga beriladi. Xo'sh, kam ta'minlarga oilalar bu boradagi faoliyatga rozi bo'lsalar, ular qaysi mablag' evaziga o'rdaklarni sotib olishlari mumkin? Mas'ullarning aytishicha, ular uchun imtiyozli tarzda kreditlar ajratiladi va mana shu mablag' evazigaa parrandani sotib olishlari mumkin. Ha, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va tashabbuslar inson qadrini ulug'lashga qaratilgan. Chunki inson qadri - adolatli va farovon jamiyat qurishning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Kambag'allikni qisqartirish, insonlarning munosib turmush kechirishlari uchun sharoit yaratish barchasi inson qadrini ulug'lashning amaliy ifodasi hisoblanadi.

2025-01-30 09:44:37